

**MAQSUD SHAYXZODA DRAMATURGIYASINING O'ZIGA XOS
JIHATLARI VA "MIRZO ULUG'BEK" TRAGEDIYASI TAHLILI.**

Mardonova Nilufar Ilhomjon qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi

1-bosqich talabasi.

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada XX asr o'zbek adabiyotining ulkan namoyandasi Maqsud Shayxzoda dramaturgiyasining o'ziga xos badiiy-estetik xususiyatlari tadqiq etiladi. Adibning shoh asari hisoblangan "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi misolida tarixiy shaxs talqini, obrazlar psixologizmi hamda ilm va jaholat o'rtasidagi murosasiz kurash tahlilga tortilgan. Shuningdek, asardagi emotsional-ekspressiv vositalar, ota va o'g'il munosabatlaridagi fojiviy ziddiyatlar hamda asarning jahon klassik dramaturgiyasi an'analari bilan bog'liqligi yoritib berilgan. Maqolada Ulug'bek siymosining ham olim, ham hukmdor sifatidagi murakkab fojiasi adabiy nuqtayi nazardan asoslab beriladi.*

***Kalit so'zlar:** Maqsud Shayxzoda, Mirzo Ulug'bek, dramaturgiya, tragediya, tarixiy obraz, psixologizm, konflikt, ma'rifat, Abdullatif, badiiy talqin, emotsional-ekspressivlik.*

Maqsud Ma'sumbek o'g'li Shayxzoda 1908-yil 7-noyabrda Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida dunyoga kelgan. Padari Ma'sumbek el-yurt orasida yuksak e'tiborga ega bo'lgan tabib edi. U san'at va so'z bo'stonini sevar, o'tmish hamda falsafa ilmlariga qiziqardi. Maqsud boshlang'ich va o'rta ta'limni Oqtoshda bitirgach, Boku oliy pedagogika institutida sirtqi bo'limda tahsil oladi. Adib 1926-yili Adham Farziy tomonidan tuzilgan "Milliy firqa" tashkilotiga a'zo bo'lib, musavvatchilar harakatida faol ishtirok etgani sababli 1927-yilda qamoqqa olinadi va 1928-yilda Toshkentga surgun qilinadi. Shayxzoda 1928-yilning fevralida Toshkent tuprog'iga qadam qo'yadi. Dastlab ozarbayjonlik do'stlarining xonadonida istiqomat qiladi, so'ngra shoir

Dadakishiyning uyida ijara turadi. Bir yil mobaynida o'zbek tilini mukammal o'zlashtirgach, o'zbek maktablarida saboq bera boshlaydi. Shu bilan birga, O'rta Osiyo davlat universitetining sharqshunoslik fakultetiga o'qishga kirib, faoliyat doirasi yanada kengayadi. O'ziga ko'plab safdoshlar va hamfikrlar topadi. Kelajakda ulkan so'z san'atkorlari bo'lib yetishgan G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor kabi ijodkorlar bilan tanishadi. Ma'lum muddat "Qizil O'zbekiston", "Sharq haqiqati" va "Yosh leninchi" gazetalarida xizmat qiladi. Otashnafas ijodkor mustabid tuzumning qatog'onlaridan omon qolmadi. U ilk bor 1928-yilda hibsga olinib, uch yilga O'zbekistonga surgun qilingan edi. Keyinchalik Yozuvchilar uyushmasidan chetlatilib, 1952-yil 22-sentabrda yana qamoqqa olinadi va 25 yil muddatga ozodlikdan mahrum etiladi. Adib Stalin vafotidan so'ng oqlanib, erkinlikka chiqdi va ijodga qaytdi. 1958-yilda qadimiy va hamisha yosh Toshkent shahriga bag'ishlangan "Toshkentnoma" lirik dostonini yaratdi. 1960-yilda esa o'zining mashhur "Mirzo Ulug'bek" tragediyasini yozib, unda buyuk olim va ma'rifatparvar hukmdor Mirzo Ulug'bek timsolini gavdalantirdi. Adib 1967-yilda Toshkentda vafot etdi. 2001-yili o'zbek adabiyoti va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos hissasi uchun vafotidan so'ng "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlandi. "Shayxzoda aql ma'nosidagina emas, siymo ma'nosida ham hammamizdan ajralib turardi. Muxtor og'aning beozor savoli unga erish tuyulmadi. Aksincha, hamma yerda, hamma vaqt, hamma muhit va sharoitda qalbini obod qilgan faxr tuyg'usini jo'shtirib yubordi. U suyunib, hatto faxrlanib, ozarbayjonlik ekanini, Ozarbayjondan kelganini aytdi. Shu so'zlarni aytib turganida Maqsudning yuziga xuddi osmondagi quyosh ko'chib tushgandek bo'ldi."¹ "O'zbek adabiyotining buyuk namoyandalari – G'afur G'ulom va Oybek kabi otashnafas san'atkorlar safida ijod qilgan Maqsud Shayxzoda zuvalasi she'riyat shu'lasini bilan yorilgan kuychi edi. Uning asarlarida buyuk inqilobiy ideallar, jo'shqin vanparvarlik tuyg'ulari, chinakam ijodiy hissiyotlar bilan yashagan yoniq qalbning gulduros aks sadosi mujassam topgan"²

¹ Odil Yoqubov. "Ustoz haqida so'z" (Maqsud Shayxzoda haqidagi xotiralaridan).

² Mirzo Ibrohimovning Maqsud Shayxzoda xotirasiga bag'ishlangan "Mangu barhayot siymo" nomli xotira-ocherkidan

Bundan tashqari, bu adibni xalq sevishini Said Ahmat bir soʻz isbotlaydi. “Shayxzoda bu dunyoga rohat koʻrmay oʻtib ketgan shoirdir. Uni el shoirim derdi. Shayx akam, derdi. Yoshlar ustozim derdi. U olim edi bir insonga shuncha fazilat boʻlishi mumkinligi Shayxzoda timsolida koʻrganman.

U olim shoir edi.

U shoir olim edi.

Bunday insonlar dunyoga kamdan kam keladi” deb yozadi—Said Ahmad.³ Shayxzoda tarixiy shaxslar hayotini badiiy vositalar va chuqur psixologizm orqali qayta jonlantirgan. Uning dramalarida qahramonlarning ichki ziddiyatlari, vatanparvarlik gʻoyalari va davrning dolzarb muammolari mahorat bilan yoritiladi. Masalan, “Mirzo Ulugʻbek” tragediyasida taxt ilinjida oʻz otasining qotiliga aylangan farzand fojiasi asarning eng keskin kulminatsion nuqtasi sifatida gavdalanadi. Abdulla Oripovning “Oʻzbekiston” qasidasida “Gar tarix evrilsa, shuhrat tojini, Unga kiygizardi Sulton Ulugʻbek” kabi satrlar⁴ duch kelamiz. Shayxzoda drama janridagi olov hisoblangan u asarni oʻsha davriniki kabi ochib bergan, shu bois Abdulla Oripov tarix takrorlansa, Shayxzodaga Ulugʻbekni oʻzi toj kiygizishini aytgan. Abdulla Oripov Maqsud Shayxzodani ulugʻ dramatur maqomiga koʻtarganiga guvoh boʻlamiz. Bundan tashqari, Shayxzodani ijodini “Shekspirona koʻlam va harorat”⁵ deb atashgan. Bu taʼrif koʻpincha “Mirzo Ulugʻbek” tragediyasiga nisbatan ishlatiladi. Asardagi qahramonlar ruhiyatini ochib berishdagi teran psixologizm, dramatik toʻqnashuvlarning keskinligi va epik koʻlam klassik jahon dramaturgiyasi, xususan, Uilyam Shekspir ijodiga qiyoslanadi. Maqsud Shayxzoda dramalarida qoʻllangan emotsional-ekspressivlik kitobxon qalbida kuchli hissiy aks sado uygʻotish va muallif gʻoyasini yetkazishning asosiy omilidir. Adib dramaturgiyasida milliy tarix, insoniylik, vatanparvarlik va kuchli iroda kabi yuksak fazilatlar obrazlarning oʻta taʼsirchan tuygʻulari orqali ifoda etiladi. Dramaturg qahramonlari, odatda, murakkab ruhiy jarayonlar va ichki kurashlar iskanjasida gavdalanadi. Aynan mana shu ifoda

³ Said Ahmadning “Dilbar shoir edi u” Maqsud Shayxzoda uchun bagʻ ishlangan

⁴ Abdulla Oripov “Oʻzbekiston” qasidasi

⁵ H. Boltayev va A. Gʻaniyev “Oʻzbek dramaturgiya tarixi” 157-bet

<https://scientific-jl.com/>

vositalari yordamida personajlarning ichki dunyosi, ularning xatti-harakatlari sabab va oqibatlari atroflicha yoritiladi. Dramatik janrda bu uslub asosiy vazifani bajarib, qahramonlarning kechinmalari hamda ziddiyatli qarorlarini yaqqol namoyon etadi.

Shayxzoda dramalari tarixiy asosga ega bo'lsa-da, undagi shaxslar faqat o'tmish siymosi emas, balki jonli va murakkab psixologik qiyofalar sifatida tasvirlangan. Mazkur asarda tarixiy fojia — ilm va jaholat o'rtasidagi murosasiz kurash markaziy o'rin egallaydi. Ulug'bek timsolida olim, ota va davlat arbobi o'rtasidagi ziddiyatlar mahorat bilan chizilgan. Masalan, Ulug'bekning o'g'li Abdullatifga qilgan murojaati "O'g'lim, men sening yuragingni ilm bilan to'ldirmoqchi edim, sen esa uni nafrat bilan to'ldirding..."⁶ Ushbu satrlar ulkan dramatik quvvatga ega bo'lib, ota qalbida tug'yon urayotgan iztirob va umidsizlikni ifodalaydi. Adib obrazlar nutqini teran psixologik tahlil asosiga qurgan bo'lib, bu yondashuv syujet rivojida va konfliktlar yechimida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida yaratilgan Ulug'bek siymosi – o'zbek dramaturgiyasi va milliy adabiyotimizdagi eng murakkab, fojiaviy hamda yuksak ma'rifatparvar obrazlardan biridir. Adib Ulug'bekni nafaqat tarixiy shaxs, balki abadiy g'oyalar kurashining timsoli sifatida talqin etgan. U osmon ilmi bilan mashg'ul bo'lishni shu qadar istaydiki, hatto bu yo'lda shirin uyqusidan ham voz kechadi. "Xayrli tun birla rohat kelsun sizlarga, Ali bilan menga esa bedorlik mehnat"⁷ deb aytilgan ushbu satrlar olimning fan yo'lidagi mashaqqatli izlanishlari va fidoyiligini yaqqol namoyon etadi. Bundan tashqari, ilm o'rganish yo'lida bedor bo'lgan bir vaqtda, saltanatdagi turli fitna va g'alamisliklar uning ilmiy faoliyatiga jiddiy to'siq bo'la boshlaydi. Hukmdor bunday nosog'lom muhitdan chuqur norozilik tuyadi. "Serxatar, yirtqich dunyo" tushunchasi esa bevosita siyosiy nizolar, dushmanlik va xiyonatlar hukmron bo'lgan Temuriylar saltanatidagi og'ir vaziyatga ishora qiladi. Ulug'bek bu so'zlar orqali o'zini qurshab turgan ichki va tashqi xavflar, insoniyatning ma'naviy

⁶ Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi 182-bet

⁷ Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi 43-bet

<https://scientific-jl.com/>

tanazzuli haqida ochiq gapiradi. Dramada Ulug'bek olim sifatida olam va koinot hodisalarining bilimdoni, astronomiya sohasida buyuk kashfiyotlar sohibi sifatida gavdalanadi. Ota sifatida esa u keng mulohazali, sabr-bardoshli, farzandlari uchun jonkuyar va mehribon, ammo kezi kelganda talabchan hamda qattiqqo'l inson sifatida tasvirlanadi. Asarni mutolaa qilar ekansiz, qarshingizda ilmni hamma narsadan ustun qo'yadigan, adabiyot va san'at ahliga cheksiz ehtirom ko'rsatadigan, shogirdlariga falakiyot sirlarini o'rgatuvchi beminnat ustoz qiyofasi namoyon bo'ladi. Biroq qirq yillik hukmronligi davomidagi ezgu ishlari va ilm yo'lidagi fidoiyligi fojiali yakun topadi. Ijtimoiy muhitdagi yovuz niyatli kimsalar qamrovidan chiqishga qanchalik urinmasin, ota sifatida farzandlariga qancha mehr bermasin, pirovardida o'z jigarbandining nafi va xudbinligi qurboniga aylanadi. Mirzo Ulug'bek — ham oliy hukmdor, ham buyuk olim sifatida ulkan hayotiy sinovlarni boshidan kechirgan murakkab tarixiy shaxsdir. Maqsud Shayxzoda ushbu asarda barcha voqealarni besh pardaga mahorat bilan sig'dirib, asosiy e'tiborni saroy ixtiloflari hamda buyuk olimning ilmiy izlanishlari o'rtasidagi ziddiyatni yoritishga qaratgan.

Mirzo Ulug'bek — “oliy hukmdor” va buyuk olim sifatida ko'plab murakkab voqealarni boshidan kechirgan tarixiy shaxs. Bularning barchasini besh pardaga sig'dirib bo'lmasligini anglagan Maqsud Shayxzoda, ushbu asarda asosan ikki yo'nalishdagi voqealarni, ya'ni saroy ixtiloflari hamda buyuk olim olib borgan ilmiy izlanishlarni yoritgan. Dramada Ulug'bek qiyofasi ko'proq boshqa obrazlar: Ali Qushchi, Sakkokiy, Shayxulislom, Burhoniddin, shuningdek, Chin, Hind, Farang, Rus elchilari va xorijlik talabalar bilan bo'lgan muloqotlarda ilm-fan homiysi, buyuk olim va ma'rifat fidoyisi sifatida namoyon bo'ladi. Tragediyada vaziyatlar shiddat bilan almashinib turadi: tinchlik — notinchlikka, osudalik — tahlikaga, ilmparvarlik esa fitna-yu fasodlarga to'qnash keladi. Bu jarayonda Mirzo Ulug'bekka naqadar qiyin bo'lganini qalban his qilish mumkin. Dramaning 5-parda, 5-ko'rinishidagi voqealar Ota Murodning hovlisida yuz beradi. Kuz, bulut, qorong'ulik — bu uch detal fojia yaqinlashayotganidan darak beradi. Ya'ni Mirzo Ulug'bek mamlakatda fitna-yu fasodlarning tugatilishini istab,

arboblarga qasos tig'i botirilmashligini, madrasa va rasadxonalarga zavol yetmasligini talab qilib, taxtdan iste'fo beradi. Afsuski, qirq yil davomida Xuroson davlatini boshqargan hukmdorning umriga nobakor o'g'li Abdullatif, uning mahrami Abbas hamda Xo'ja Ahror kabi din niqobi ostida ish ko'ruvchi ikkiyuzlamachi, munofiq va razil kimsalar yakun yasaydilar. Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi g'oyasi — ulug' alloma, shoh va olim Mirzo Ulug'bek shaxsiyatidagi ziddiyatlar, uning ilmiy faoliyati va siyosiy hokimiyat o'rtasidagi kurashlari hamda qismatining fojiaiy yakunini ko'rsatishdan iborat. Asarda adolatli hukmdor, buyuk astronom va inson o'rtasidagi keskinliklar, shaxsiy qismat va tarixiy voqealar uyg'un holda tasvirlanadi. Shayxzoda tragediyasida ilm va siyosat o'rtasidagi qarama-qarshilik, shaxsiy isyonkorlik hamda ota-o'g'il munosabatlaridagi murakkabliklar asar markaziga qo'yilgan. Tragediya tuzilishida shaxsiy va siyosiy tasavvurlar kurashining ayanchli natijalari aks etadi. Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romani esa tarixiy voqealar va shaxslar orqali ilm-fan yo'lidagi yutuqlarni, shuningdek, jamiyatdagi mutaassiblikning noxush oqibatlarini tasvirlaydi. Mazkur asar Ulug'bekning ilmiy merosi va uning "xazinasi" kabi keng qamrovli mavzularni o'rganish orqali insoniyat tarixidagi ahamiyatli davrni badiiy tarzda qayta jonlantiradi. Ushbu tadqiqotda "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi va "Ulug'bek xazinasi" romani o'rtasidagi asosiy konfliktlar, tugunlar va ularning yechimlari qiyosiy tahlil qilinadi. Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" dramasida asosiy to'qnashuv tafakkur va saltanat o'rtasidagi murosasizlikda namoyon bo'ladi. Ulug'bek fan taraqqiyoti va boqiy meros qoldirishga intilayotgan shaxs sifatida gavalantiriladi, ammo uning davlat boshqaruvi bilan bog'liq faoliyati asar davomida chigal vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Uning vorisi Abdullatif bilan bo'lgan aloqalari, bir tarafdin padarlik mehri, ikkinchi tarafdin esa siyosiy guruhlar o'rtasidagi qarama-qarshilikni yuzaga chiqaradi. Fojianing markazida ma'rifat, rivojlanish va insoniylik tamoyillari (Mirzo Ulug'bek timsolida) bilan mutaassiblik, jaholat va taxtparastlik (Abdullatif siymosida) o'rtasidagi mangu muhoraba yotadi. Shayxzoda Ulug'bekning halokatini shaxsiy mudhish yakun

emas, balki buyuk ma'rifatparvarlik davrining qoloqlik va nafs qarshisida mag'lub bo'lishi sifatida talqin etadi. Bu esa barcha zamonlarda ham ziyo qadrini anglash zarurligini uqtiradi. Asar podshohlik taxti va koinot ilmi o'rtasida muallaq qolgan Ulug'bekning fojiasini yoritadi. Uning olim sifatidagi mukammalligi, hukmdor sifatidagi siyosiy zaifligi bilan to'qnashib, qonli yakun topadi. U mutolaaga berilib, mamlakatni idora etishda g'aflatda qoladi, bu esa uning insoniy tanazzulini keltirib chiqaradi. Dramaning negizida Shayxzodaning yurt istiqboli uchun fan va ulug'ajdodlar (Temuriylar kabi) an'analarini e'zozlash, o'tmishdagi nuqsonlarni qaytarmaslikka chorlovchi yuksak vatanparvarlik ruhi mujassamdir. Ulug'bekning vafoti – butun bir buyuk imperiya inqirozidan nishonadir.

Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug'bek” tragediyasi XX asr o'zbek dramaturgiyasining yuksak cho'qqisi hisoblanadi. Mazkur asar vositasida adib nafaqat Temuriy hukmdorning fojiaiy qismatini, balki bashariyat tarixidagi mangu g'oyaviy to'qnashuvni mahorat bilan tasvirlagan. Dramadan kelib chiqadigan xulosa shuki, ma'rifat va fan yo'lini tanlagan shaxs uchun hamisha turli to'siqlar hamda ayanchli qismatlar ko'ndalang bo'lishiga guvoh bo'lamiz. Shuningdek, saltanat uchun doimo qon to'kilishi o'sha davr kishilarining mutaassib qarashi edi, deb o'ylayman. Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” dramasi “Podshohlik qon bilan sug'orilgan ogochtir”⁸ degan fikri Mirzo Ulug'bek fojiasida ham o'z aksini topgan. Ulug'bek ilm-fan taraqqiyoti yo'lida fidokorlik ko'rsatgan bo'lsa-da, oxir-oqibat jaholat qurboniga aylandi. Valiahd o'g'ilning ko'zini hokimiyat va boyluk hirsini ko'r qilgan, deb hisoblayman. Biroq, o'zganing nasibasi bo'lgan dunyo matohi boshqa kimsaga hech qachon vafodorlik qilmaydi. “Ulug'bek xazinasi” asarida ko'rganimizdek, u o'z padarini qatl ettirib taxtga o'tiradi, ammo tarix sahifalarida “Padarkush” degan tamg'a bilan abadiy qoralanadi. Abdullatif nomi zikr etilganda, o'z manfaati yo'lida otasining qonidan qaytmagan jirkanch qiyofa gavdalanaveradi. Muxtasar qilib aytganda, adib ushbu asar orqali hozirgi avlodni moziy xatolaridan saboq chiqarishga, ilmga, adolatga hamda ona Vatanining buyuk merosiga sadoqat saqlashga undovchi boqiydir hayot

⁸ Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” dramasi 187-bet
<https://scientific-jl.com/>

sabog'ini taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” drammasi T., 1998-yil
2. Abdusalilova M. Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodining o'zbek milliy adabiyotidagi tutgan o'rni T., 2022 y. – 1198 b.
3. H. Boltayev va A. G'aniyev tahriri ostida chiqqan “O'zbek dramaturgiyasi tarixi” T., 1995-yil
4. Maqsud Shayxzoda “Mirzo Ulug'bek” tragediyasi G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyot T., 1972-yil
5. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi, T., 1999-yil